



RUHIY RIVOJLANISHI BUZILGAN BOLALARINIG AQLIY
FAOLIYATI VA NUTQ XUSUSIYATLARI.

Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi

Alfraganus University

Pedagogika fakulteti,

Defektalogiya yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Karimova Zulfiya Abdurahmonovna

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya

kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ruhiy rivojlanishi buzilgan bolalarda aqliy faoliyat, tafakkur xosligi, turlari va bu tafakkur orqali ularni aqli zaiflikdan ajrata olishga yordam berishi. Ruhiy rivojlanishi buzilgan bollarni turlari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: bilish va ko'nikma malakalar, diagnostika, aqli zaiflik, sensor integratsiya, intellektual, talaffuz, grammatika, ruhiy holat, hissiy holat, korreksiyalash, bartaraf etish.

Abstract: mental activity in mentally retarded children, characteristics and types of thinking and how this thinking helps to distinguish them from mental retardation. The types of mentally retarded children were discussed.

Key words: knowledge and skills, diagnosis, mental retardation, sensory integration, intellectual, pronunciation, grammar, mental state, emotional state, correction, remediation.



Аннотация: умственная деятельность умственно отсталых детей, особенности и виды мышления и как это мышление помогает отличить их от умственной отсталости. Обсуждались типы умственно отсталых детей.

Ключевые слова: знания и умения, диагностика, умственная отсталость, сенсорная интеграция, интеллект, произношение, грамматика, психическое состояние, эмоциональное состояние, коррекция, коррекция.

Kirish:

L.S. Vigotskiy (1896-1934) eng mashhur rus psixolog va faylasuflaridan biridir. Olim o‘z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko‘plab g‘oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir. L.S. Vigotskiyning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta’limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy ilmiy taraqqiyoti masalasi turadi. L.S. Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funksiyalar, ya’ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlarni bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo‘lmasligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizini aniqlash tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko‘rsatdi. Aynan L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. L.S. Vigotskiyning fikricha, muhit oliy psixik funksiyalarning taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi roli yosh o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq-avtanomi tug‘ma shakllari mavjud bolmaydi. Odamning psixik taraqqiyoti faoliyatning shakllangan turlari va usullarini o‘zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfofiziologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun sharoit sifatida xizmat qiladi. Ruhiy rivojlanishi buzilgan bolalarning so‘z-mantiq tafakkuri yetarli rivojlanmagan bo‘lib, ba’zi holatlarda ularni yengil darajadagi aqli zaiflardan farqlay olmaslik mumkin. Ammo, ularning ko‘rgazma-harakat va ko‘rgazma-obrazli tafakkur turlari aqli zaiflardan keskin farq qilib, normal tengdoshlariga yaqinlashib boradi. Bu esa ularning bilish faolyatlarida katta rivojlanish imkoniyatlari mavjudligi

va ularning bir qismi ma'lum ta'lim-yillaridan keyin, maxsus ta'lim-tarbiya va davolash ishlari natijasida o'z normal tengdoshlariga yetib olishi mumkinligini ko'rsatadi. Tafakkur turlarining bunday munosabati va notekisligi katta differensial diagnostik ahamiyatga egadir. Ma'lum obyektlarni tahlil qilganda ruhiy rivojlanishi buzilgan bolalar normal tengdoshlariga nisbatan kamroq, lekin aqli zaif bolalarga nisbatan ko'proq anglaydilar va tafakkur qiladilar. Lekin, shu bilan birga ularning tahlil jarayoni rejasiz ravishda bajarilganligi sababli obyektning ko'pgina qismlari tushirib qoldiriladi. Ammo, ularga defektolog tomonidan ma'lum yordam berilganda, tahlil natijalarida keskin o'zgarish bo'lib, normal tengdoshlariga yaqinlashadi. Pedagog tomonidan yordam berilganda aqli zaif bolalarda ham ijobiy o'zgarishlar bo'lishi mumkin, ammo, bu o'zgarish ruhiy rivojlanishi buzilgan bolalardek katta natija bo'lmaydi. Bolaning psixikasi uning aktiv faoliyati, turli-tuman harakatlari, o'z atrofidagi narsalarni ko'proq bilib olishi jarayonida rivojlanar ekan, uning erkin harakatlari uchun qulay sharoit yaratish zarur. Bola harakatlarini cheklash esa psixikasining normal rivojlanishiga ma'lum darajada zarar etkazadi. Shu sababli bolani harakat qilishga imkon bermaydigan holatga solib qo'ymaslik zarur. Ruhiy rivojlanishi buzilgangan bolalar nutqi normal bolalarga nisbatan rivojlanish, shakllanish nuqtai - nazaridan birmuncha orqada qoladi. Ularda turli talaffuz kamchiliklari uchrab turadi. Tovushlar talaffuzining buzilishi, tovush obrazlarining yetarli shakllanmaganligi yozish va o'qishda xatolarga yo'l qo'yishga olib keladi. Ruhiy rivojlanishi buzilgan bolalar lug'at boyligi birmuncha cheklangan bo'lib, aktiv lug'ati yetarli rivojlamagan bo'ladi. Ular nutqidagi mavjud tushunchalar tor, noaniq ba'zan esa noto'g'ri bo'ladi. Grammatik umumlashtirishlar yetarli bo'limgaganligi sababli, yozuvda va og'zaki nutqda turli xil xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Sezgi o'z mohiyati jihatidan birmuncha sodda psixik jarayon (aks ettirish jarayoni) bo'lishiga qaramay, barcha bilimlarimizning asosiy manbaidir. Narsa va hodisalaming ayrim belgilari, xususiyatlarini aks ettirishdan iborat bo'lgan sezish protsessining fiziologik mohiyati mashhur fiziolog I.M.Sechenov va I.P.Pavlovning analizatorlar haqidagi ta'limotlarida atroflicha ohib berilgan. Rus psixologlarining nuqtai nazarları

bo'yicha, rivojlanish yangi, bolada ilgari bo'limgan sensor jarayonlarini shakllantirishdir. Albatta, analizatorlaming takomillashuvi (eshitish, ko'rish, teri orqali tuyish, hid bilish va b.q.) sezgi va idrok rivojlanishining zarur shartlaridan va uning rolini rad etish mumkin emas. Lekin bu faqat sensor rivojlanishining oiganik imkoniyati, sharti, biroq, bulaming barchasi sezgi tajribasini egallamay turib sodir bo'lmaydi. Tafakkur, nutq sensor tajriba ortishi natijasidir.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki; bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuch va qonuniyatları bor. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish. Mumkin bo'lgan va mumkin bo'limgan holatlar o'rgatiladi.

Bola dunyoni, atrofni ota-onaga ko'zlar bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-onaga kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati – bu ko'zgudagi sizning aksingiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. 0 'quv qo'llanma. -T.: 0 'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 160 b.
2. L.R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova, Maxsus psixologiya-T. 2013 yil
3. M. Ayupova "Logopediya" 2007 yil